“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



DNK ekspertizasi uchun biologik materiallarni yig‘ish to‘g‘risidagi qonunchilikning qiyosiy-huquqiy tahlili

Niyyora Saitova,
Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi Iste'mol mahsulotlari va ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish laboratoriyasi mudiri
e-mail: maryn1787@gmail.com

Аннотация. Maqolada Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Kanada, Avstraliya, Qozog‘iston, Rossiya va O‘zbekistonning molekulyar-genetik ekspertiza uchun biologik namunalar olish hamda ularni DNK ma’lumotlar bazalarida foydalanishni tartibga soluvchi qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi — huquqiy tartibga solishning umumiy modellarini aniqlash va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashdan iborat. Qiyosiy-huquqiy va formal-yuridik usullar, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi va AQSh Oliy sudi amaliyoti hamda rasmiy statistik ma’lumotlar tahlilidan foydalanildi. Namunalar olinishi ustidan nazoratning to‘rt modeli ajratildi: sud modeli, politsiya-ma’muriy model, hibsga olishda namuna olish modeli va tergov modeli. Huquqiy rejimlarni qiyoslash uchun olti mezon taklif etildi. O‘zbekistonda «Davlat genomik ro‘yxatga olish to‘g‘risida»gi Qonun amal qilishi va JPKda biologik namunalar olishning asosiy qoidalari mavjudligi, biroq namunalarni majburan olish ustidan sud nazorati, kontaminatsiyaning oldini olish va saqlanish zanjiriga oid talablar nazarda tutilmagani, jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar namunalar olishga yo‘l qo‘yilmasligi hamda biologik ob’ektlarni olish, qadoqlash va saqlashning texnik standarti mavjud emasligi aniqlandi. JPK normalarini, profillarni saqlash muddatlarini va saqlanish zanjiriga oid talablarni aniqlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Калит сўзлар. DNK ekspertizasi, biologik namunalar, genomik ro‘yxatga olish, DNK ma’lumotlar bazasi, qiyosiy huquqshunoslik, jinoyat protsessi, saqlanish zanjiri, inson huquqlari.

Аннотация. В статье проведён сравнительно-правовой анализ законодательства Германии, Великобритании, США, Франции, Канады, Австралии, Казахстана, России и Узбекистана, регулирующего получение биологических образцов для молекулярно-генетической экспертизы и их использование в базах данных ДНК. Цель исследования — выявить общие модели правового регулирования и определить направления совершенствования законодательства Республики Узбекистан. Использованы сравнительно-правовой и формально-юридический методы, анализ практики Европейского суда по правам человека и Верховного суда США, а также официальных статистических данных.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Выделены четыре модели контроля за получением образцов: судебная, полицейско-административная, модель получения образца при аресте и следственная модель. Предложены шесть критериев сравнения правовых режимов. Установлено, что в Узбекистане действует Закон «О государственной геномной регистрации», а УПК содержит базовые правила получения биологических образцов, однако не предусматривает судебного контроля за их принудительным получением, требований к предупреждению контаминации и цепочке сохранности и не допускает получения образцов до возбуждения уголовного дела; технический стандарт изъятия, упаковки и хранения биологических объектов отсутствует. Сформулированы предложения по детализации норм УПК, сроков хранения профилей и требований к цепочке сохранности.

Ключевые слова. ДНК-экспертиза, биологические образцы, геномная регистрация, база данных ДНК, сравнительное правоведение, уголовный процесс, цепочка сохранности, права человека.

Annotation. The article presents a comparative legal analysis of the legislation of Germany, the United Kingdom, the United States, France, Canada, Australia, Kazakhstan, Russia and Uzbekistan governing the collection of biological samples for forensic DNA examination and their use in DNA databases. The aim is to identify common models of legal regulation and to determine how the legislation of the Republic of Uzbekistan could be improved. The study applies comparative and doctrinal legal methods and analyses the case law of the European Court of Human Rights and the US Supreme Court as well as official statistics. Four models of control over sample collection are distinguished: judicial, police-administrative, collection on arrest, and investigative. Six criteria for comparing legal regimes are proposed. The study finds that Uzbekistan has a Law "On State Genomic Registration" and that its Criminal Procedure Code contains basic rules on obtaining biological samples; however, the Code provides no judicial control over compulsory sampling and no requirements on contamination prevention or chain of custody, and does not allow samples to be obtained before a criminal case is opened, while there is no technical standard for the collection, packaging and storage of biological evidence. Proposals are made to specify the provisions of the Criminal Procedure Code, profile retention periods and chain-of-custody requirements.

Keywords. forensic DNA examination, biological samples, genomic registration, DNA database, comparative law, criminal procedure, chain of custody, human rights.

1984-yilda A. Jeffreys inson DNKsining individual izlarini olganidan beri molekulyar-genetik identifikatsiya jinoyat sud ishlarida keng qoʻllanmoqda[1]. Biologik namuna olish va genetik profilni saqlash shaxsiy hayot va tana daxlsizligiga aralashuv boʻlgani bois jinoyatlarni ochish va shaxs huquqlari kafolatlarini muvozanatlash zarurati yuzaga keladi. Turli davlatlar bu borada namuna olish tartibi, muddatlari va majburlash shartlari boʻyicha

turli yechimlarni qo‘llaydi.

Germaniya sudi DNK identifikatsiyasini tartibga solishning batafsil tizimiga ega bo‘lib, u Jinoyat-protsessual kodeksi (StPO) normalariga asoslanadi[2]. StPOning 81a-paragrafiga ko‘ra, tana tekshiruvi va qon olish sud qarori bilan, kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda esa prokuratura va tergov yordamchilari farmoyishi bilan amalga oshiriladi. 81e-paragraf tadqiqot maqsadlarini (DNK profili, kelib chiqish, jins) belgilaydi; 2019-yildan boshlab ko‘z, soch, teri rangi va yoshni aniqlashga ham ruxsat berilgan. 81f-paragraf roziliksiz tadqiqot tayinlash tartibini, 81g-paragraf esa og‘ir yoki jinsiy jinoyatlarda ayblanuvchilardan kelgusidagi identifikatsiya uchun namuna olishni tartibga soladi. 81h-paragrafga muvofiq ommaviy DNK testi (Reihenuntersuchung) faqat yozma rozilik va sud qarori bilan o‘tkazilib, 2017-yildan uchinchi darajagacha qarindoshlarni aniqlash uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Maxsus qonun qoidalari 2005-yilda StPOga kiritilgan bo‘lib, nemis modeli sud nazorati, belgilarning yopiq ro‘yxati va protsessual asoslarni uyg‘unlashtiradi.

Buyuk Britaniya namunalar olishni 1984-yilgi Politsiya va jinoyat ishlari bo‘yicha dalillar to‘g‘risidagi qonun (PACE) bilan tartibga solib[3], shaxsiy daxlsizlikka daxldor (qon, to‘qima, siydik va h.) hamda daxldor bo‘lmagan (soch, tirnoq, og‘iz surtmasi) namunalarni farqlaydi. “S. va Marper Birlashgan Qirollikka qarshi” ishida (2008) Yevropa sudi gumonlanuvchilar profillarini muddatsiz saqlash Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyaning 8-moddasini buzishini tan olgach[4], 2012-yilgi Erkinliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun tabaqalashtirilgan muddatlarni belgiladi[5]. 2021-yilgi Sud-ekspertlik regulyatori to‘g‘risidagi qonun Amaliyot kodeksini tasdiqlash vakolatini berdi[6]. 1995-yildan ishlayotgan Milliy DNK ma'lumotlar bazasida (NDNAD) 2024-yil mart holatiga ko‘ra 7 226 795 ta shaxs va 688 054 ta iz profili mavjud bo‘lib, uning yuritilishini FIND Strategy Board nazorat qiladi[7].

Amerika Qo‘shma Shtatlarida 1994-yilgi DNK identifikatsiyasi to‘g‘risidagi qonun FQBga CODIS tizimi doirasida NDISni yaratish vakolatini berdi[8]. 2024-yil fevral holatiga NDISda 17 million hukm qilinganlar, 5 million hibsga olinganlar va 1,3 million iz profili mavjud edi[9]. IV tuzatish bilan cheklangan namuna olish “Maryland v. King” (2013) ishida og‘ir jinoyatda hibsga olinganlardan og‘iz bo‘shlig‘i surtmasini olish daktiloskopiya bilan qiyoslanadigan qonuniy tartib deb e'tirof etildi[10]. FQBning Sifatni ta'minlash standartlari laboratoriyalarga yagona talablarni belgilaydi[11].

Kanadada namuna olish Jinoyat kodeksining 487.04 – 487.091-moddalari va DNK orderlari tizimi bilan tartibga solinadi. 1998-yilgi qonun ta'sis etgan Milliy DNK ma'lumotlar bankini Qirollik Kanada otliq politsiyasi yuritadi[12].

Qozog‘iston Jinoyat-protsessual kodeksida gumon qilinuvchidan majburiy namuna olishga yo‘l qo‘yiladi. 2016-yilgi “Daktiloskopik va genomik ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun og‘ir

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

jinoyatlar uchun hukm qilinganlarni majburiy roʻyxatga olishni belgilaydi.

Rossiya Federatsiyasida namuna olish Jinoyat-protsessual kodeksining 202-moddasi bilan tartibga solinadi. 2008-yilgi 242-FZ-federal qonun ogʻir jinoyatlar uchun hukm qilinganlarni davlat genomik roʻyxatga olishni belgilab beradi.

Oʻzbekistonda 2023-yil 1-yanvardan boshlab 2020-yil 24-noyabrdagi “Genom boʻyicha davlat roʻyxatiga olish toʻgʻrisida”gi 649-qonun amal qiladi. Qonun ogʻir va oʻta ogʻir jinoyatlar uchun gumon qilinuvchi sifatida ushlangan, ayblanuvchi yoki hukm qilingan shaxslarni, jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslarni, noma'lum shaxslarni va shaxsi aniqlanmagan murdalarni majburiy roʻyxatga olishni belgilaydi. Qonunda ixtiyoriy roʻyxatga olish ham nazarda tutilgan boʻlib, bedarak yoʻqolgan shaxslarning biologik qarindoshlari uchun xizmat bepul koʻrsatiladi. Yagona genomik axborot bazasini yuritish Ichki ishlar vazirligiga yuklatilgan. Namunalar olishning protsessual tartibi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-bobi (188–197-moddalar) bilan tartibga solinadi. 188-modda tirik odamdan olinishi mumkin boʻlgan biologik namunalarni – qon, soch, soʻlak, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalarni bevosita nazarda tutadi. Namuna olish huquqi surishtiruvchi, tergovchi va sudga berilgan; agar namuna olish shaxsni yechintirish bilan bogʻliq boʻlsa yoki alohida kasb mahoratini talab qilsa, namunalarni shifokor yoki boshqa tibbiy mutaxassis oladi (189, 194-moddalar). Agar qoʻllanadigan usullar ogʻriq bermasa hamda hayot va salomatlik uchun xavfsiz boʻlsa, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va jabrlanuvchidan namunalar majburlov yoʻli bilan olinishi mumkin. Oʻzga shaxslardan namunalar olishga esa faqat 190-moddada nazarda tutilgan hollarda hamda tanosil va boshqa yuqumli kasalliklarni aniqlash munosabati bilan (192-modda) yoʻl qoʻyiladi. Kuchli ogʻriq beradigan murakkab tibbiy tadbirlar faqat shaxsning roziligi bilan qoʻllanilishi mumkin (196-modda). Olingan namunalar oʻraladi, muhrlanadi va namuna olish bayonnomasi bilan birga ekspertga yuboriladi (193, 197-moddalar). Shu bilan birga, namunalarni majburan olish, shu jumladan jabrlanuvchidan olish toʻgʻrisidagi qarorni surishtiruvchi yoki tergovchi sud nazoratisiz qabul qiladi, kontaminatsiyaning oldini olish, saqlash sharoitlari va biologik obyektlarning saqlanish zanjirini hujjatlashtirishga oid talablar esa kodeksda belgilanmagan. JPKning 189-moddasi namunalar olish huquqini faqat surishtiruvchi, tergovchi va sudga beradi, 329-moddaning ikkinchi qismi esa tergovga qadar tekshiruv davomida hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish va ekspertiza oʻtkazishga ruxsat bergani holda boshqa tergov harakatlarini oʻtkazishni man qiladi. Shunday qilib, ekspertiza jinoyat ishi qoʻzgʻatilgunga qadar oʻtkazilishi mumkin, uning uchun qiyosiy namunalar esa faqat ish qoʻzgʻatilgandan keyin olinishi mumkin; shu munosabat bilan 329-moddaning ikkinchi qismini toʻldirish taklif etiladi. Biologik obyektlarni olish, qadoqlash, tashish va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

saqlashga qo‘yiladigan talablarni belgilovchi milliy texnik standart ham mavjud emas. Genetik ma'lumotlarga ishlov berish esa “Shaxsga doir ma'lumotlar to‘g‘risida”gi qonunning umumiy normalari doirasida amalga oshiriladi.

Ko‘rib chiqilgan qonunchilikni umumlashtirish biologik namunalar olinishi ustidan nazoratning to‘rt modelini ajratish imkonini beradi:

sud modeli (Germaniya, Kanada), unda namunani majburan olish va uni tadqiq qilish sud tomonidan sanksiyalanadi, boshqa organlar esa faqat dalillar yo‘qolishi xavfi bo‘lganda harakat qiladi;

politsiya-ma'muriy model (Buyuk Britaniya, Avstraliya), unda qarorni politsiyaning katta ofitseri qabul qiladi, kafolatlar esa shaxsiy daxlsizlikka daxldor bo‘lgan va shaxsiy daxlsizlikka daxldor bo‘lmagan namunalarni farqlash, shaxsiy daxlsizlikka daxldor bo‘lgan namunalar uchun rozilik talabi va ma'lumotlar bazasi ustidan mustaqil nazorat orqali ta'minlanadi;

hibsga olishda namuna olish modeli (AQSh), unda og‘iz bo‘shlig‘i surtmasini olish og‘ir jinoyatda gumon qilinib hibsga olingan shaxsni rasmiylashtirishning standart tartibi sifatida ko‘riladi;

postsovet davlatlariga (Rossiya, O‘zbekiston, ko‘p jihatdan Qozog‘iston) xos bo‘lgan tergov modeli, unda namunalar tergovchining qarori bilan olinadi, sud nazorati esa yo mavjud emas, yoki faqat jabrlanuvchilar va guvohlarga nisbatan majburlashga taalluqlidir.

Huquqiy rejimlarni qiyoslash uchun oltita mezondan foydalanish taklif etiladi:

namuna olishga ruxsat beruvchi organ va nazorat darajasi;

majburlashning joizligi shartlari va shaxs roziligining ahamiyati;

tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan belgilar doirasi va boshqa irsiy xususiyatlarni tahlil qilish taqiqi;

profilni ma'lumotlar bazasiga kiritish asoslari, uni saqlash muddatlari va o‘chirish tartibi;

olish, qadoqlash, saqlash va saqlanish zanjirini hujjatlashtirishga qo‘yiladigan texnik talablar;

ma'lumotlar bazasini yuritish ustidan mustaqil nazoratning mavjudligi.

Ushbu mezonlarni qo‘llash O‘zbekiston qonunchiligi ro‘yxatga olish asoslari (ikkinchi va to‘rtinchi mezonlar) bo‘yicha xorijiy tajribadan qolishmasligini ko‘rsatadi. Biroq uchinchi, beshinchi va oltinchi mezonlar bo‘yicha u sezilarli darajada ortda qolmoqda: o‘rganilgan normalarda tadqiq qilinadigan belgilar doirasi cheklanmagan, biologik obyektlar bilan ishlashga oid batafsil texnik talablar (kodeks faqat o‘rash va muhrlash bilan cheklanadi) hamda genomik baza ustidan mustaqil nazorat mexanizmi mavjud emas.

Yuqorida bayon etilgan xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda O‘zbekiston uchun quyidagilar maqsadga muvofiq ko‘rinadi:

JPKning 23-bobini kontaminatsiyaning oldini olish, biologik namunalarni saqlash sharoitlari va saqlanish zanjirini

hujjatlashtirishga oid talablar bilan to‘ldirish hamda jabrlanuvchilar va gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bo‘lmagan boshqa shaxslardan namunalarni majburan olish ustidan sud nazoratini nazarda tutish;

JPK 196-moddasi kafolatlariga rioya qilgan holda namunalar olishni tergovga qadar tekshiruv davomida o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan harakatlar ro‘yxatiga (329-moddaning ikkinchi qismi) kiritish;

“Genom bo‘yicha davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risida”gi qonunda aniqlanishi lozim bo‘lgan belgilarning to‘liq ro‘yxatini boshqa irsiy xususiyatlarni tadqiq qilishni taqiqlagan holda mustahkamlash;

profillarni saqlashning tabaqalashtirilgan muddatlarini va jinoyat ishi tugatilgan yoki shaxs oqlangan taqdirda uning arizasiga ko‘ra ularni o‘chirish tartibini belgilash;

saqlanish zanjirini hujjatlashtirish talabi bilan biologik obyektlarni olish, qadoqlash, markalash, tashish va saqlashning milliy standartini ishlab chiqish; yagona genomik axborot bazasini yuritish ustidan mustaqil nazoratni nazarda tutish.

Shunday qilib, qiyosiy tahlil DNK ekspertizasi uchun biologik materiallar yig‘ishni huquqiy tartibga solishning samaradorligi nafaqat genomik ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi qonunning mavjudligi, balki uchta elementning uyg‘unligi bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi: namuna olishdagi protsessual kafolatlar, biologik obyektlar bilan ishlashga qo‘yiladigan texnik talablar va genetik axborotni saqlash rejimi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jeffreys A.J., Wilson V., Thein S.L. Individual-specific 'fingerprints' of human DNA // Nature. 1985. Vol. 316. P. 76–79. DOI: 10.1038/316076a0.

2.Strafprozessordnung (StPO) in der Fassung der Bekanntmachung vom 7. April 1987 (BGBl. I S. 1074, 1319), zuletzt geändert. §§ 81a, 81e–81h. URL: https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/.

3.Police and Criminal Evidence Act 1984 (c. 60), ss. 62–65. URL: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1984/60.

4.S. and Marper v. the United Kingdom [GC], nos. 30562/04 and 30566/04, ECHR, 4 December 2008.

5.Protection of Freedoms Act 2012 (c. 9), Part 1, Chapter 1. URL: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2012/9.

6.Forensic Science Regulator Act 2021 (c. 14). URL: https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2021/14.

7.Home Office. Forensic Information Databases Strategy Board: Annual Report 2023 to 2024. London, 2024. URL: https://www.gov.uk/government/publications/forensic-information-databases-annual-report-2023-to-2024.

8.DNA Identification Act of 1994, Pub. L. No. 103-322, Title XXI, Subtitle C, 108 Stat. 1796 (34 U.S.C. § 12592).

9.Pryor Y., Donadio J.P., Muller S.C., Wilson J., Lasisi T. National and State-Level Datasets of United States Forensic DNA Databases

2001–2025 [Preprint]. 2025. arXiv: 2511.11953. DOI: 10.5281/zenodo.17215677.

10.Maryland v. King, 569 U.S. 435 (2013).

11. Federal Bureau of Investigation. Quality Assurance Standards for Forensic DNA Testing Laboratories (effective July 1, 2025). URL: https://le.fbi.gov/file-repository/forensic-qas-070120.pdf.

12. Criminal Code of Canada (R.S.C. 1985, c. C-46), ss. 487.04–487.091; DNA Identification Act (S.C. 1998, c. 37). URL: https://laws-lois.justice.gc.ca.